

## **Biznes uchun pulni qayerdan olsa bo'ladi**

Bugun tadbirkorlik bilan shug'ullanmoqchi bo'lganlar ko'p. Qolaversa, mamlakatimizda kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash maqsadida keng sharoitlar yaratilmoqda. Biroq... bu soxaning ham o'ziga yarasha pastu balandlari bor. Avvalo biznes boshlash uchun ma'lum miqdorda mablag' kerak bo'ladi. Uni qayerdan olsa bo'ladi. Quyida ana shu mavzuda so'z yuritamiz.

### **Boshlang'ich kapital: shaxsiy mablag'ga suyansa bo'ladimi yoki...**

Biznesni boshlashdan avval boshlang'ich kapitalga ega bo'lish muhim sanaladi. Hech bo'limganda dastlabki xarajatlar uchun. Firma ochish (yakka tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tish), patent yoki litsenziya olish xarajatlari, ofis yoki sex uchun binoni ijaraga olish, uni jihozlash, va h.k. Bunda "yaxshi niyatlar bilan yig'ib yurgan" mablag' yoki kutilmaganda yaqin qarindoshingizdan qolgan meros asqotsa ajabmas. Xullas, boshlang'ich kapitalingiz bo'lsa, juda yaxshi. Ammo... yetarmikan. Axir biznesning yozilmagan bir qoidasi bor: katta foyda olish uchun ko'proq pul tikishga to'g'ri keladi. Yangi asbob-uskunalar keltirish, malakali mutaxassislarni jalb qilish, biznesni kengaytirish degandek... Bunday paytda qulay shartlar asosida berilishi mumkin bo'lgan kredit ayni muddao.

### **Istalgan summadagi kreditni imtiyozli olish mumkinmi?**

Kichik biznes sub'ektlariga imtiyozli kreditlar ajratilishi endilikda hech kim uchun sir emas. Ammo qaysi bankda va qancha miqdorda?

O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki Portalida bu savolga quyidagicha javob berilgan. AT Mikrokreditbank tomonidan imtiyozli mikrokreditlar Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 6 maydagi 78-sonli "Mikrokreditbank aksiyadorlik-tijorat banki faoliyatini tashkil etish va uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Mikrokreditlar berish va mikrolizing xizmatlari ko'rsatish tartibi to'g'risida Nizom"ga asosan ajratiladi.

Ushbu Nizomga ko'ra,

Boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun mikrokreditlar:

- yuridik shaxs maqomiga ega bo'limgan dehqon xo'jaliklari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun eng kam oylik ish haqining 50 baravarigacha miqdorda;
- mikrofirmalar va dehqon xo'jaliklari uchun (yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan) eng kam oylik ish haqining 100 baravarigacha miqdorda;
- fermer xo'jaliklari uchun eng kam oylik ish haqining 200 baravarigacha miqdorda ajratiladi.

### **Faqat yangi ish boshlaganlarga beriladimi?**

Dastlabki (boshlang'ich) sarmoyani shakllantirishga mikrokreditlar faqat yangidan ochilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan 6 oydan oshmagan davr mobaynida kredit olish uchun buyurtma bergen tadbirkorlarga beriladi.

Mikrokreditlarning foiz stavkasi - yillik 3 foiz miqdorida, muddati - 18 oygacha.

### **Biznesini kengaytirishni istaganlar uchun...**

Biznesni rivojlantirish (kengaytirish) va aylanma mablag'larni to'ldirish uchun kichik biznes sub'ektlariga mikrokreditlar eng kam oylik ish haqining 500 baravarigacha miqdorda, yillik 7 foiz ustama bilan, 24 oy muddatga ajratiladi.

Qolaversa, uchinchi tarafdan mol-mulk olish, unga egalik qilish va foydalanish uchun kichik biznes sub'ektlariga eng kam oylik ish haqining 2000 baravarigacha miqdorida yillik 5 foiz ustama bilan, 3 yilgacha muddatga mikrolizing xizmati ko'rsatiladi.

## **Bundan tashqari...**

Byudjetdan tashqari, jamg'armalar hisobidan Adliya Vazirligi tomonidan 2006 yil 21 fevralda 1548-sون bilan ro'yxatga olingen "Tijorat banklari tomonidan kichik biznes sub'ektlariga byudjetdan tashqari jamg'armalar va Mikrokreditbank kredit liniyalari hisobidan mikrokreditlar berish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan mikrokreditlar ajratiladi.

## **Boshlang'ich sarmoyani shakllantirish uchun**

Yangidan ochilgan va davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan 6 oydan oshmagan davr mobaynida kredit olish uchun bankka buyurtma bergen yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes sub'ektlariga aylanma mablag'larni shakllantirishga, investitsiya loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishini ishlab chiqishga, asbob-uskunalar sotib olish maqsadlarida beriladi.

Foiz stavkasi - Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/6 qismi miqdorida.

Mikrokredit summasi: yuridik shaxs maqomini olib faoliyat ko'rsatayotgan dehqon xo'jaliklari va mikrofirmalarga eng kam oylik ish haqining 150 baravarigacha va kichik korxonalar va fermer xo'jaliklari eng kam oylik ish haqining 300 baravarigacha bo'lgan miqdorda.

Muddati: 3 yilgacha.

## **Ishlab chiqarishni kengaytirish va faoliyatini rivojlantirish uchun mikrokreditlar**

Dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish va kengaytirish, shu jumladan qishloq xo'jaligi texnikasini sotib olish, fermerlik inshootlarini qurish, chorvachilik, parrandachilikni rivojlantirish uchun yuridik shaxs maqomiga ega bo'lman dehqon xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 200 baravariga va yuridik shaxs maqomiga ega dehqon va fermer xo'jaliklariga eng kam oylik ish haqining 1000 baravarigacha miqdorida, Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 1/3 qismi (bugungi kunda yillik 4,67 foiz) bilan, 3 yilgacha bo'lgan muddatga.

- Mahsulotlar ishlab chiqarish, xom ashyo va materiallarni tubdan qayta ishlash, hunarmandchilikni rivojlantirish, kasanachilik mehnatini tashkil etish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 200 baravaridan hamda mikrofirma va kichik korxonalarga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan miqdorida, qayta moliyalash stavkasining 40 foizi (bugungi kunda yillik 5,6 foiz) bilan, 3 yilgacha bo'lgan muddatga;
- Xizmatlar ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirish uchun yakka tartibdagi tadbirkorlarga eng kam oylik ish haqining 200 baravaridan, mikrofirma va kichik korxonalarga eng kam oylik ish haqining 1000 baravaridan ko'p bo'lman miqdorda, Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 45 foizi, (bugungi kunda yillik 6,3 foiz) bilan, 3 yilgacha bo'lgan muddatga ajratiladi.

## **Maxsus jamg'arma hisobidan ajratilsa...**

Tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan ham tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar ajratiladi.

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydag'i «Tijorat banklarining kichik tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori bilan tasdiqlangan "Tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlik sub'ektlari, dehqon va fermer xo'jaliklarini Imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan kreditlash tartibi to'g'risida Nizom"ga muvofiq, tijorat banklarida tashkil etilgan Imtiyozli kreditlash maxsus jamg'armasi mablag'lari hisobidan tadbirkorlik sub'ektlariga kreditlar Markaziy bankning amaldagi qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan (yillik 7 foiz) yuqori bo'lman foiz stavkasi bilan:

- xom ashyo va materiallar, yarim tayyor mahsulotlar hamda boshqa ishlab chiqarish zaxiralari xarid qilish uchun zarur bo'lgan aylanma mablag'larni to'ldirishga 1 yil muddatgacha;
- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini tashkil etish uchun aylanma mablag'larni to'ldirishga kamida 2 yil muddatga;
- investitsiya loyihibalarini mablag' bilan ta'minlash uchun 5 yil muddatga ajratiladi.

### **Kredit olish uchun zarur hujjatlar**

1. Qarzdor tomonidan imzolangan va kredit berilishidan oldingi sana qo'yilgan, kreditdan foydalanish maqsadlari bayon etilgan va kredit ta'minlangan holda garov mavzui ko'rsatilgan ariza.
2. Imtiyozli kreditning butun muddati uchun pul oqimlari prognozi majburiy tartibda ko'rsatilgan biznes-reja.
3. Qarz oluvchi (yuridik shaxslar uchun) ro'yxatga olingan joydagi davlat soliq inspeksiyasining balans qabul qilinganligi to'g'risidagi yozuv mavjud bo'lgan oxirgi hisobot davri uchun buxgalteriya balansi, debtorlik va kreditorlik qarzlar to'g'risidagi ma'lumotnomasi, shuningdek 90 kundan ortiq muddatdagi qarzdorlik bo'yicha taqqoslash dalolatnomalari;

### **Kredit ta'minoti**

Kredit olish uchun doim ham nimanidir garovga qo'yish shart emas. Ba'zan masala uchinchi shaxsning kafilligi bilan ham hal bo'ladi. Albatta bu bevosita olayotgan kreditning summasiga ham bog'liq.

Tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar qaytarilishini ta'minlash sifatida kredit shartnomasi bo'yicha sotib olinadigan mini-texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalar ular qiymatining 80 foizi miqdorida garov uchun qabul qilinadi. Imtiyozli kreditning mini-texnologiyalar va ixcham asbob-uskunalar garovi bilan qoplanmagan qismi uchun qarz oluvchi ta'minlashning quyidagi turlaridan bir yoki bir nechtasini taqdim etadi:

- Mol-mulk yoki qimmatli qog'ozlar garovi;
- bank yoki sug'urta tashkilotining kafolati;
- uchinchi shaxslar kafilligi;
- qarz oluvchining kreditni so'ndirmasligi xavfi sug'urtalangani to'g'risida sug'urta kompaniyasining sug'urta polisi.

### **Xulosa o'rnida**

Yaxshi niyat bilan boshlangan xayrli ish har doim ijobiy natija beradi. Ruhshunoslarning diqqatini odam psixologiyasidagi bir jihat hamisha o'ziga tortib kelgan. Masalan, odatda boyib ketishni orzu qiladigan odam, buning uchun nimalar qilishi kerakligini emas, balki boyiganida pullarini nimalarga va qayerga sarf qilishini o'ylar ekan. To'g'ri, befoyda bo'lsa ham, juda yoqimli jarayon. Ammo aynan mana shu "shunchaki xayol surish" jarayonida ham orzularni to'g'ri yo'naltirish mumkin ekan. Bo'lajak biznesmen, biznesingiz foyda keltirishni boshlaganida qanday xayrli ishni amalga oshirgan bo'lar edingizq... Shunchaki xayol surganda ham shuni o'ylang va xayrli ish orzusi xayollaringizning real hayotga tadbiq etilishi uchun ajoyib turtki bo'ladi.